



"BOBURNOMA"DA JOY NOMLARI VA TARIXIY SHAXS NOMLARI

Abdurahmonova Mavluda Ibragimovna

TerDU akademik litseyi ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Boburnoma" asarining tilshunoslik fani taraqqiyotidagi ahamiyati va asardagi onomastik birliklar xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, onomastika, oykonim, toponim, antroponim, gidronim.

KIRISH

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat shoh va shoir, balki mashhur tilshunos olim hamdir. Uning "Boburnoma" qomusiy asaridagi tilshunoslikning turkshunoslik, grafika, fonetika, stilistika, etnolingvistika, orfoepiya, qiyosiy tilshunoslik, frazeologiya, onomastika (nomshunoslik), etimologiya, leksikologiyaga oid dalillar o'zbek, hind, fors-tojik, arab tillarini o'rganishda muhim tarixiy manbadir.

ASOSIY QISM

"Boburnoma" da 14728 ta so'z qo'lanilgan bo'lib, shundan 4007 tasi (umumiy leksikaning 27%)ni nomlar tashkil qiladi. Jumladan, 1507 ta antroponim, 1253 ta toponim, 284 ta etnonim, 175 ta zoonim, 247 ta fitonim, 37 ta kitob va risola, 4 ta kema nomi keltirilgan¹.

Asarda taxminan 1000 tagacha geografik nom-mamlakat, shaxar, qishloq, kal'a, dasht, dovon, dala, daryo, ko'prik, kechik, ko'l, chashma, bog', yaylov, o'tloq va boshqa joylarning nomlari tilga olingan. Yuzlab geografik nomlar tarixiy va tilshunoslik nuqtayi nazaridan izohlangan. Asarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratgan yapon olimi Eyji Mano bejizga uni

¹ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma.-Toshkent: Sharq, 2002 y.



“ma’lumotlar xazinasini” deb atamagan edi.

“Boburnoma” da uchraydigan toponimlar ular ifodalagan ob’ektlarning turiga ko‘ra bir necha gu-ruhga bo‘linadi. Bularning bir qismini aholi maskanlari nomlari-oykonimlar tashkil etadi. Ular quyidagilar:

1)mamlakatlar nomlari: Afg‘oniston, Hindiston, Arabiston, Mo‘g‘uliston, Iroq, Ozarbayjon, Misr, Xitoy, Xuroson;

2) shaxarlar nomlari: Dehli, G‘azna, Kobul, Mashhad, Banoras, Lohur, Urganch, Toshkand, Andijon, Kesh, Sayram, Qarshi, Buxoro;

3) qishloq va kentlar nomlari: Mahammad og‘a kenti, Xudak kenti, Beshkent;

4)qal’a va qo‘rg‘onlar nomlari: Qal’ai Dabusi, Qal’ai Zafar, Olaqo‘rg‘on, Toshqo‘rg‘on, Asfidakqo‘rg‘oni²;

5) rabotlar nomlari: Raboti Sarhang, Raboti Zarvraq, Raboti Ro‘zak.

“Boburnoma” da juda ko‘p tarixiy shaxslar-temuriy hukmdorlar, harbiy amaldorlar, ilm-fan va san’at namoyandalari va boshqalarning shakl-shamoillari va ruhiyatlari mohirona chizilgan, ularning xatti-harakatlari ochib berilgan.

“Boburnoma” da Amir Temur, Shohrux Sulton, Abusaid, Ulug‘bek, Sulton Husayn, Muhammad Shay-boniyxon, Xoja Ubaydulloh Ahror, Umar Shayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Ahmad Tanbal, Xusravshoh, Zunnun Arg‘un, Ismoil Safaviy, Shoh Tahmasp, Xoja Abulmakorim, Xoja Mavlonoyi Qozi, Badiuzzamon Mirzo, Abdullatif Mirzo, Pona Sango, Ibrohim Lo‘diy singari shoh va shahzodalar, amir va beklar, pirmurshidlar haqida muhim tarixiy ma’lumotlar keltirilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari joy nomlariga boy manbadir. Unda suv havzalarini ifodalovchi atoqli otlar-gidronimlar alohida o‘rinni tashkil etadi. Hidronimlar qanday suv ob’ektlarini anglatishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi;

1. Daryolar nomi: Gang daryosi, Amu daryosi, Oqsuv daryosi, Jo‘n daryosi,

² Uluqov N. Hidronimik indikatorlarining lisoniy tadqiqi. Namangan 2012 y.



2. Sayxun daryosi, Ilamish daryosi, Saru daryosi, Satluj daryosi, Sind daryosi, Daryoyi Xo‘r kabilar.
3. Buloq-chashma nomlari: Yonbuloq, Qorabuloq, Qarg‘abuloq, Boboqaro chashmasi, Bodomchashma, Gar- chashma, Halvochashma, Chashmai Para kabilar³.
4. Ariq hovuz va soylar nomlari: Qirqariq, Hoqon arig‘i, Mallaxon xovuzi, Havzi Mohiyon, Qo‘ruqsoy, Alasoy singarilar. “Boburnoma” da ariq nomlaring ayrimlari tojikcha “jo‘y” so‘zi orqali ifodalangan: Jo‘yi Injil, Jo‘yi Shohiy.
5. Ko‘llar nomi: Qorako‘l, Ko‘ligil, Ko‘li Malik, Ko‘li Mag‘ok singarilar.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma” XV asr oxiri-XVI asr boshlaridagi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonning tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, o‘simlik va hayvonot olami, xalqi, odamlarining kasb-kori, tili va boshqa xususiyatlari haqida bebaho malumotlarni o‘zida mujassam etgan qomusiy asardir.

“Boburnoma” asarida tarix, etnografiya, geografiyaga oid qimmatli ma’lumotlardan tashqari, tilshunoslikning toponimika sohasida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. “Boburnoma” ning bu boradagi ahamiyati shundaki, undan toponimlarning qadimiy shakllarini aniqlash, tarixiy toponimiya masalalari, shuningdek, geografik terminologiya tadqiqida muhim tarixiy va qimmatli manba hisoblanadi.

³ www.dislib.uz



ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma.-Toshkent: Sharq, 2002 y.
2. Uluqov N. Gidronimik indikatorlarining lisoniy tadqiqi. Namangan 2012 y.
3. www.ziyonet.uz
4. www.dislib.uz
5. www.cyber.uz
6. www.natlib.uz